



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3820
2026 - yil 16 - Aprel

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI RAISING BUYRUG'I

Davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va amaliy san'at asarlari mualliflarining ish haqi hamda ular tomonidan sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagi PQ-3201-son "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar [to'g'risida](#)"gi hamda 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar [to'g'risida](#)"gi qarorlariga muvofiq **buyuraman:**

1. Davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va amaliy san'at asarlari mualliflarining ish haqi hamda ular tomonidan sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan kelishilgan.
3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais
2026-yil 17-mart
I-134-son



NURIDINOV AKMAL
VAXOBJANOVICH

Kelishildi:

Vazir
2026-yil 5-mart



KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Vazir
2025-yil 12-dekabr



NAZARBЕКOV OZODBEK
AXMADOVICH

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisining
2026-yil 17-martdagi I-134-son buyrug‘iga
ILOVA

**Davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va amaliy
san‘at asarlari mualliflarining ish haqi hamda ular tomonidan
sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini belgilash tartibi
to‘g‘risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va amaliy san‘at asarlari mualliflarining ish haqi (bundan buyon matnda mualliflik haqi deb yuritiladi) hamda tasviriy va amaliy san‘at asarlari mualliflari tomonidan sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini belgilash tartibini nazarda tutadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi.

badiiy asar – davlat buyurtmalari asosida muallif tomonidan yaratilgan tasviriy va amaliy san‘at asarlari, shu jumladan haykaltaroshlik asarlari, dizayn, badiiy loyihalashtirish va konstruktorlik ishlari, amaliy bezak san‘ati asarlari, naqqoshlik bezagi, badiiy mebellar va boshqalar;

buyurtmachi – badiiy asarlarni baholatish maqsadida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ekspertlar kengashiga murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan muallif;

Ekspertlar kengashi – O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi [Badiiy ekspertlar kengashi](#).

2. Ushbu Nizom qoidalari muzey ishlari, antikvar va tarixiy-badiiy qiymatga ega asarlarni baholash uchun tatbiq etilmaydi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagi PQ–3201-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan Haykaltaroshlik asarlari, tasviriy san‘at asarlari yaratganlik, badiiy loyihalashtirish va konstruksiyalash uchun mualliflik haqi [stavkalari](#) ro‘yxatida keltirilgan tasviriy va amaliy san‘at asarlariga nisbatan mualliflik haqi mazkur ro‘yxatdagi haq to‘lashning [eng kam](#) va [eng ko‘p miqdor](#)lari oralig‘ida belgilanadi.

4. Badiiy asarning yangi g‘oya va mustaqil ijodiy yondashuv asosida yaratilishini ta‘minlash maqsadida boshqa mualliflik asarlari yoki tayyor

namunadan nusxa olingan holda yaratilgan asarlar baholash uchun qabul qilinmaydi.

5. Agar badiiy asar bir nechta muallif tomonidan yaratilgan bo'lsa, mualliflik haqi ularning o'zaro kelishuviga asosan taqsimlanadi.

Badiiy asarni yaratish jarayonida muallifdan tashqari boshqa shaxslar ham ishtirok etgan taqdirda ularning ish haqi summasi badiiy asar muallifi tomonidan o'zaro kelishuv asosida taqsimlanadi.

2-bob. Baholash bo'yicha Ekspertlar kengashi faoliyatining umumiy masalalari

6. Ekspertlar kengashi badiiy asarni dastlabki baholashda taqdim etilgan o'lchov hujjatlari va ma'lumotlarining to'g'riligi uchun javobgar hisoblanmaydi hamda nazorat o'lchovlarini o'tkazmaydi.

Ekspertlar kengashi badiiy asarni yakuniy baholashda bajarilgan ishlar bahosini buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan o'lchov hujjatlari va ma'lumotlariga asosan amalga oshiradi.

7. Duradgorlik, qurilish, santexnika, elektrotexnika, qurilish-bezak ishlari, texnik va yordamchi ishlar ekspertizasi, shuningdek materiallar hajmi va qiymati, transport xarajatlari, ijtimoiy to'lovlar va boshqa pudrat xarajatlarini aniqlash Ekspertlar kengashi tomonidan amalga oshirilmaydi.

8. Ekspertlar kengashi badiiy ishlar bahosini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga (bundan buyon matnda MHTEKM deb yuritiladi) nisbatan belgilangan eng quyi va eng yuqori ko'rsatkichlar oralig'ida hisoblaydi hamda mazkur Nizomda belgilangan koeffitsiyentlarni inobatga oladi.

Bunda, bajarilgan ishning badiiy darajasi, hajmi va texnologiyasidan kelib chiqib, Ekspertlar kengashi badiiy ishlar bahosini mazkur Nizomning ilovalarida belgilangan eng quyi miqdordan ham pasaytirishi mumkin.

3-bob. Mualliflik haqini belgilash va xomashyo xarajatlari

9. Mualliflik haqi quyidagi xarajatlarga asosan belgilanadi:

Tasviriy san'at asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq;

Haykaltaroshlik asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq;

Dizayn, badiiy loyihalashtirish va konstruktorlik ishlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 3-illovasiga muvofiq;

Amaliy bezak san'ati asarlari va me'morchilikdagi keramika ishlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 4-illovasiga muvofiq;

Naqqoshlik bezagining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 5-illovasiga muvofiq;

Badiiy mebellarning o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 6-illovasiga muvofiq;

San'atshunoslik va muzeyshunoslik ishlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 7-illovasiga muvofiq

San'at asarlarini ta'mirlash ishlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 8-illovasiga muvofiq;

Miniatyura asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 9-illovasiga muvofiq;

Badiiy fotosurat asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 10-illovasiga muvofiq;

Me'morchilikdagi amaliy bezak san'ati asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari mazkur Nizomning 11-illovasiga muvofiq;

Haykaltaroshlikda sarflanadigan (xarajat qilinadigan) xomashyolarning o'lchov birliklari va miqdorlari Nizomning 12-illovasiga muvofiq.

10. Badiiy asarlar uchun quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

yer sathidan 2 m dan 3,5 m gacha bo'lgan balandlikdagi yuzada yaratilganda (bajarilganda) – 1,2 koeffitsiyent;

yer sathidan 3,5 m dan 5 m gacha bo'lgan balandlikdagi yuzada yaratilganda (bajarilganda) – 1,3 koeffitsiyent;

yer sathidan 5 m dan yuqori bo'lgan balandlikdagi yuzada yaratilganda (bajarilganda) – 1,4 koeffitsiyent;

gorizontal yok sharsimon yuzada yaratilganda (bajarilganda) – 1,2 koeffitsiyent;

qiya yoki sferasimon yuzada balandligi 3 m dan 5 m gacha bo'lgan badiiy asar yaratilganda (bajarilganda) – 1,3 koeffitsiyent;

qiya yoki sferasimon yuzada balandligi 5 m dan ortiq bo'lgan badiiy asar yaratilganda – 1,4 koeffitsiyent.

11. Badiiy asarlarni baholashda tasviriy va bezak naqshlar bilan to'ldirilmagan yuza umumiy kompozitsion yechimning 20 foizidan oshmasa, mazkur yuza shu kompozitsiyaning bir qismi sifatida baholanadi.

Bunda umumiy kompozitsion yechimning 20 foizidan oshgan tasviriy va bezak naqshlar bilan to'ldirilmagan yuza baholashda inobatga olinmaydi.

12. Ilgari yaratilgan badiiy asarlarni ta'mirlash ishlarini baholashda ta'mirlash jarayonining murakkabligi va sarflangan mehnat hisobga olinadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

13. Budjetdan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlash maqsadida Ekspertlar kengashi badiiy asarni baholashning haqqoniyligi va to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.

14. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va
amaliy san'at asarlari mualliflarining ish haqi hamda ular
tomonidan sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini
belgilash tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

**Tasviriy san'at asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun
mualliflik haqi miqdorlari**

1-bob. Dastgohli grafika

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Qalam, pero, tush va siyohqalam bilan chizilgan chizmatasvir	dona	4,5	64,8
2	Sangina, ko'mir va sous bilan chizilgan badiiy-chizma asar	dona	0,703	35,15
3	Akvarel	dona	4,5	97,2
4	Pastel, guash	dona	4,5	64,8
5	Monotipiya, abru	dona	4,5	32,4
6	Ksilografiya, ofort	dona	4,5	32,4
7	Litografiya	dona	4,5	32,4
8	Linogravyura	dona	4,5	32,4
9	Aralash grafik texnika	dona	4,5	48,6
10	Kitob illyustratsiyasi	dona	4,5	32,4
11	Kompyuter grafikasi	dona	4,5	48,6

2-bob. Badiiy plakat va chop etilgan mahsulotlar

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Siyosiy plakat, asl nusxa	dona	21,1	48,6
2	Reklama plakati, asl nusxa	dona	21,1	48,6
3	Targ'ibot plakati, asl nusxa	dona	21,1	48,6
4	Badiiy plakat, asl nusxa	dona	21,1	175,63
5	Pochta markalari, otkritka va boshqa chop etilgan mahsulotlarning asl nusxalari, korxonalar belgisi (logotipi)	dona	3,2	16,2

3-bob. Dastgohli rangtasvir

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Etyud	dona	1,6	16,2
2	Foreskiz	dona	4,5	24,3
3	Eskiz	dona	6,5	32,4
4	Manzara, natyurmort	dona	4,92	97,2
5	Portret	dona	4,92	64,8
6	Inson yarimqomati tasvirlangan portret	dona	4,92	97,2
7	Kompozitsion portret va to'liq qomatli inson portreti	dona	4,92	162,1
8	Guruhli portret (ijodiy, ko'p figurali)	dona	4,92	129,7
9	Ko'p qomatli mavzuli ijodiy asarlar (zamonaviy, tarixiy, batal, maishiy va boshqa mavzularda)	dona	4,92	263,44
10	Ijodiy asarning asl nusxasidan ko'chirma tayyorlash	dona	4,5	97,2
11	Ijodiy asar reproduksiyasidan ko'chirma tayyorlash	dona	4,5	64,8

Izoh:

Mazkur jadvaldagi ijodiy asarning o'lchami 2 m^2 dan oshgan taqdirda har bir oshgan 1 m^2 uchun qo'shimcha 0,2 koeffitsiyent mualliflik haqi hisoblanadi.

4-bob. Mahobatli rangtasvir

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Mahobatli devoriy surat konsepsiyasi	dona	16,2	32,4
2	Foreskiz	dona	13,0	24,3
3	Tarixiy, batal, ko'pfigurali kompozitsiya eskizi	dona	13,0	32,4
4	Mavzuli kompozitsiya eskizi	dona	8,1	19,4
5	Tarixiy, batal va ko'pfigurali kompozitsiya bo'yicha karton ishi	m^2	3,2	9,7
6	Mavzuli kompozitsiya bo'yicha karton ishi	m^2	3,2	6,5
7	Kalka-shablon	m^2	1,0	3,9

8	Tarixiy, batal va ko'pfigurali kompozitsiyani turli texnikalardan foydalangan holda materialda bajarish	m ²	3,2	16,2
9	Mavzuli kompozitsiyani materialda bajarish	m ²	2,11	9,7
10	Natyurmort, manzara kompozitsiyasini materialda bajarish	m ²	2,11	8,1
11	Ornamentli, gerbli kompozitsiyani materialda bajarish	m ²	2,11	6,5
12	Tarixiy, batal, ko'pfigurali kompozitsiyani mozaika texnikasida materialda bajarish	m ²	2,11	12,3
13	Manzara, natyurmort kompozitsiyasini mozaika texnikasida materialda bajarish	m ²	2,11	8,1
14	Bezakli, gerbli kompozitsiyani mozaika texnikasida materialda bajarish	m ²	2,11	4,9
15	Qo'rg'oshin lenta va tekis shishadan faqat tasvirli vitraj ishlab chiqish	m ²	3,2	9,7
16	Qo'rg'oshin lenta va tekis shishadan tasvirli vitraj ishlab chiqish hamda olovda pishirish	m ²	4,9	13,0
17	Formalarda quyilgan, molirovan, egilgan, qum bilan ishlangan shishadan vitraj ishlab chiqish	m ²	6,5	14,6
18	"Tiffani" kichik vitraj ishlab chiqish	dona	6,5	13,0
19	Quyish yoki puflash texnikasi yordamida shishadan diametri 1 m gacha bo'lgan lyustra ishlash	dona	16,2	48,6
20	Quyish yoki puflash texnikasi yordamida shishadan diametri 2 m gacha bo'lgan lyustra ishlash	dona	32,4	81,0
21	Quyish yoki puflash texnikasi yordamida shishadan diametri 2 m va undan yuqori bo'lgan lyustra ishlash	dona	48,6	162,1
22	Badiiy asarlar uchun palitra (rang) tanlash	m ²	1,6	4,9

Izoh:

Ish bajarilayotgan obyekt yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizilgan rasmning rang tushirilishidan oldingi karton ijrosi tarixiy, batal va ko'pfigurali kompozitsiya bo'yicha karton ishi yoki mavzuli kompozitsiya bo'yicha karton ishi sifatida baholanadi.

Davlat buyurtmalari asosida yaratiladigan tasviriy va amaliy san'at asarlari mualliflarining ish haqi hamda ular tomonidan sarflanadigan xomashyolar xarajatlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

Haykaltaroshlik asarlarining o'lchov birliklari hamda ular uchun mualliflik haqi miqdorlari

1-bob. Kichik hajmli haykaltaroshlik (0,5 m gacha)

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	3D va kompyuter grafikasi uslubida ishlangan eskiz turlari	dona	6,5	13,0
2	Eskiz	dona	14,05	22,7
3	Nishon (medal avers) - old tomon (2,5 dm ² gacha)*	dona	3,2	13,0
4	Nishon (medal revers) - orqa tomon (2,5 dm ² gacha)*	dona	4,9	16,2
5	Kichik hajmli haykal, kubok, haykalchalar (50 sm gacha)	dona	14,05	52,7
6	Yodgorlik mukofotining kichik lavhasi, ramz, bezakli haykal	dona	3,2	32,4
7	Shaklli, bezakli va (yoki) relyefli kompozitsiyalar (shakl, bezak va (yoki) relyef kompozitsiya yuzasining 30 foizdan 50 foizgacha qismini egallaydi)	dm ²	4,9	9,7
8	Shaklli, bezakli va (yoki) relyefli kompozitsiyalar (shakl, bezak va (yoki) relyef kompozitsiya yuzasining 50 foizdan 70 foizgacha qismini egallaydi)	dm ²	9,7	13,0
9	Shaklli, bezakli va (yoki) relyefli kompozitsiyalar (shakl, bezak va (yoki) relyef kompozitsiya yuzasining 70 foiz va undan ortiq qismini egallaydi)	dm ²	13,0	19,4
10	Qattiq xomashyolardan haykal yasash (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar)	dona	5,2	38,9
11	Tayyor modeldan qolipga nusxa quyib ko'chirish va ko'paytirish	dona	1,0	9,7

Izoh:

*Nishonning old (orqa) tomonining yuzasi 2,5 dm² va undan ortiq bo'lgan hollarda ushbu nishon uchun mualliflik haqini hisoblashda shaklli, bezakli va (yoki) relyefli kompozitsiya uchun belgilangan miqdorlar oralig'idan foydalaniladi

2-bob. Yumshoq bo'lmagan xomashyodan yasalgan yoki qo'shimcha ishlar bajarilgan kichik hajmli haykaltaroshlik asarlari uchun qo'shimcha koeffitsiyentlar*

T/r	Nomi	MHTEKMga nisbatan eng kam miqdor (foizda)	MHTEKMga nisbatan eng ko'p miqdor (foizda)
1	Gips yoki gips xususiyatiga o'xshash xomashyolardan kichik hajmli haykaltaroshlik asarini tayyorlash	10,0	15,0
2	Beton yoki beton xususiyatiga o'xshash xomashyolardan kichik hajmli haykaltaroshlik asarini tayyorlash	20,0	30,0
3	Sopolimer (polyestr) yoki sopolimer (polyestr) xususiyatiga o'xshash xomashyolardan kichik hajmli haykaltaroshlik asarini tayyorlash	25,0	50,0
4	Muallif ijrosida quyma metallar uchun mumdan ishlangan modelda badiiy pardozlash ishlari (bronza va boshqa metallar)	5,0	10,0
5	Bronza, temir, zanglamas po'lat hamda boshqa metallar, tosh, yog'och, shamot va boshqa qattiq xomashyolarga ko'chirish ishlari	50,0	80,0
6	Muallif ijrosida quyma metallarga badiiy ishlov berish va metallga ko'chirilgan haykaltaroshlik asarini pardozlash ishlari (bronza va boshqa metallar)	10,0	30,0
7	Badiiy bo'yash va tus berish (tonirovka) ishlari	5,0	15,0
8	Kichik hajmli haykalning (0,5 m gacha) modeli yuzasiga rangli metallardan naqsh, tasvir tushirish, qoplama xosil qilish (chekanka)	40,0	70,0

Izoh:

*Mazkur qo'shimcha koeffitsiyentlar badiiy asarning turi, ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, mehnat sarfi va mualliflik ijodidan kelib chiqqan holda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga nisbatan foiz qiymatida belgilanadi hamda muallif haqini hisoblashda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga qo'shiladi.

3-bob. Dastgohli haykaltaroshlik (0.5 m dan 1,5 m gacha)

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Dastgohli ansambl, byust, dastgohli-dekorativ haykalning konsepsiyasi (dastlabki eskiz, bajarilishi mo'ljallangan ishlar tavsifi, ergonomik o'lcham va kompozitsiya qismlarining o'zaro bog'liqligi, taklif etiladigan xomashyolar, yorug'lik va rang yechimlari)	dona	13,0	24,3
2	Dastgohli ansambl va dastgohli-dekorativ haykalning eskiz loyihasi (bosh reja, asosiy chizmalar bo'yicha perspektiva ko'rinishi, tushuntirish yozuvi, taklif etilayotgan xomashyolar, 3D ko'rinish va spetsifikatsiya)	dona	11,3	48,6
3	3D variantdagi eskiz	dona	11,3	19,4
4	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan byust eskizi	dona	14,05	22,7
5	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan byust	dona	12,3	64,8
6	Qattiq xomashyodan (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar) to'g'ridan-to'g'ri yasalgan byust	dona	12,3	263,44
7	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan inson yarimqomatining eskizi	dona	14,05	22,7
8	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan inson yarimqomati	dona	11,3	81,0
9	Qattiq xomashyodan (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar) qo'lda yasalgan inson yarimqomati	dona	9,7	64,8
10	Inson qomati eskizi	dona	14,05	22,7
11	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan inson qomati	dona	14,6	97,2
12	Qattiq xomashyodan (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar) yasalgan inson qomati	dona	38,9	77,8
13	Bezakli kompozitsiya eskizi	dona	14,05	22,7
14	Yumshoq xomashyodan qo'lda ishlangan bezakli kompozitsiya	dona	12,3	64,8
15	Qattiq xomashyolardan (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar) to'g'ridan to'g'ri bezakli kompozitsiya yasash	dona	13,0	263,4
16	Animalistik janrdagi haykal eskizi	dona	14,05	22,7

17	Yumshoq xomashyodan animalistik janrdagi haykalni qo'lda yasash	dona	14,05	48,6
18	Qattiq xomashyolardan (metall, tosh, suyak, grafit, yog'och va boshqalar) to'g'ridan to'g'ri animalistik janrdagi haykal yasash	dona	6,5	38,9
19	Haykal aksessuarlari (manzara elementlari, bayroq, ustun, qurol-yaroq buyumlari, murakkab bosh kiyimlar va boshqalar)	dona	1,6	11,3
20	Imitatsiya ishlari (tosh, marmar, temir, yog'och, soch, soqol, yung, naqsh, bezaklar va boshqalarning effektlarini o'xshatish)	m ²	0,5	1,0
21	Dastgohli haykal yoki modelni 3D-skaner yordamida ko'chirish, haykalni qaytam ² ishlash	m ²	1,6	13,0

4-bob. Yumshoq bo'lmagan xomashyodan yasalgan yoki qo'shimcha ishlar bajarilgan dastgohli haykaltaroshlik asarlari uchun qo'shimcha koeffitsiyentlar*

T/r	Nomi	MHTEKMga nisbatan eng kam miqdor (foizda)	MHTEKMga nisbatan eng ko'p miqdor (foizda)
1	Sinch va konstruksiya (karkas) ishlari	1,0	10,0
2	Gips yoki gips xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	10,0	15,0
3	Beton yoki beton xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	20,0	30,0
4	Sopolimer (polyestr) yoki sopolimerga (polyestr) xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	25,0	50,0
5	Muallif ijrosida quyma metallar uchun mumdan ishlangan modelda badiiy pardozlash ishlari (bronza va boshqa metallar)	5,0	10,0
6	Bronza, temir, zanglamaydigan po'lat hamda boshqa metallar, tosh, yog'och, shamot va boshqa qattiq xomashyolarga ko'chirish ishlari	50,0	80,0
7	Muallif ijrosida quyma metallarga badiiy ishlov berish va metalga ko'chirilgan haykaltaroshlik	10,0	30,0

	asarini pardoqlash ishlari (bronza va boshqa metallar)		
8	Badiiy bo'yash va tus berish (tonirovka) ishlari	5,0	15,0
9	Dastgohli haykalning modeli yuzasiga rangli metallardan naqsh, tasvir tushirish, qoplama hosil qilish (chekanka)	40,0	70,0

Izoh:

**Mazkur qo'shimcha koeffitsiyentlar badiiy asarning turi, ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, mehnat sarfi va mualliflik ijodidan kelib chiqqan holda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga nisbatan foiz qiymatida belgilanadi hamda muallif haqini hisoblashda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga qo'shiladi.*

5-bob. Mahobatli haykaltaroshlik

T/r	Nomi	O'lchov birligi	MHTEKM dan	MHTEKM gacha
1	Mahobatli ansambl, byust, bezakli-mahobatli haykalning konsepsiyasi (dastlabki eskiz, taklif qilinayotgan ishlar tavsifi, ergonomik o'lchamlar va kompozitsiya qismlarining o'zaro bog'liqligini asoslash, taklif etilayotgan xomashyolar, yorug'lik va rang yechimlari)	dona	13,0	24,3
2	Mahobatli ansambl yoki bezakli-dastgoh haykal uchun eskiz loyihasi (bosh reja, asosiy chizmalar bo'yicha perspektiva ko'rinishi, tushuntirish yozuvi, taklif etilayotgan xomashyolar, 3D ko'rinish va spetsifikatsiya)	dona	11,3	48,6
3	Eskizning 3D varianti	dona	11,3	19,4
4	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan byust eskizi	dona	14,05	22,7
5	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan byustning xomaki modeli	dona	8,1	22,7
6	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 1 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan byust	dona	13,0	32,4
7	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 2 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan byust	dona	16,2	38,9

8	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 3 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan byust	dona	24,3	48,6
9	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 4 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan byust*	dona	25,9	58,3
10	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan inson yarimqomatining eskizi	dona	14,05	19,4
11	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan 1:5 masshtabdagi inson yarimqomatining ishchi modeli	dona	8,8	25,9
12	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 1 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson yarimqomati	dona	16,2	48,6
13	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 2 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson yarimqomati	dona	19,4	64,8
14	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 3 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson yarimqomati**	dona	22,7	97,2
15	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan inson qomati eskizi	dona	14,05	35,15
16	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan 1:5 masshtabdagi inson qomatining ishchi modeli	dona	8,8	87,82
17	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 1 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson qomati	dona	13,0	81,0
18	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 2 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson qomati	dona	22,7	129,7
19	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 3 qomat o'lchov birligigacha bo'lgan inson qomati**	dona	48,6	243,1
20	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan animalistik janrdagi haykal eskizi	dona	14,05	22,7
21	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan animalistik janrdagi haykalning 1:5 masshtabdagi ishchi modeli	dona	8,8	19,4
22	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 1 m gacha animalistik janrdagi haykal	dona	14,05	25,9
23	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 2 m gacha animalistik janrdagi haykal	dona	14,05	32,4

24	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va 3 m gacha animalistik janrdagi haykal***	dona	14,05	52,7
25	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan tuyoqli hayvon tasvirlangan haykal eskizi	dona	14,05	22,7
26	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va tuyoqli hayvon tasvirlangan haykalning 1:5 masshtabdagi ishchi modeli	dona	8,8	32,4
27	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan, tuyoqli hayvon tasvirlangan va 1 tanad o'lchov birligigacha bo'lgan haykal	dona	16,2	64,8
28	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan, tuyoqli hayvon tasvirlangan va 2 tanad o'lchov birligigacha bo'lgan haykal	dona	24,3	113,5
29	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan, tuyoqli hayvon tasvirlangan va 3 tanad o'lchov birligigacha bo'lgan haykal**	dona	32,4	194,5
30	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan baryef, stella, obelisk, bezakli kompozitsiya eskizi	dona	14,05	22,7
31	Baryef uchun kalka-shablon	m ²	1,76	10,55
32	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va inson qomati tasvirlangan 1:5 masshtabdagi baryefning ishchi modeli	dona	4,9	24,3
33	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va inson qomati tasvirlangan baryef (umumiy yuzadan inson qomati tasvirlangan baryefning 30 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)****	m ²	3,2	9,7
34	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va inson qomati tasvirlangan baryef (umumiy yuzadan inson qomati tasvirlangan baryefning 50 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)****	m ²	4,9	13,0
35	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va inson qomati tasvirlangan baryef (umumiy yuzadan inson qomati tasvirlangan baryefning 70 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)****	m ²	6,5	19,4
36	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan hamda natyurmort va manzara tasvirlangan 1:5 masshtabdagi baryefning ishchi modeli	dona	3,2	9,7
37	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan hamda natyurmort va manzara	m ²	2,11	4,9

	tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan natyurmort va manzara tasvirlangan barelyefning 30 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)			
38	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan hamda natyurmort va manzara tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan natyurmort va manzara tasvirlangan barelyefning 50 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)	m ²	2,11	8,1
39	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan hamda natyurmort va manzara tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan natyurmort va manzara tasvirlangan barelyefning 70 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)	m ²	2,11	9,7
40	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan 1:5 masshtabdagi barelyefning ishchi modeli	dona	2,6	8,1
41	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyefning 30 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)	m ²	2,11	3,2
42	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyefning 50 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)	m ²	2,11	4,9
43	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan va naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyef (umumiy yuzadan naqsh, gerb, tamg'a, ramz va belgilar tasvirlangan barelyefning 70 foizgacha qismi bo'rtib chiqishi)	m ²	2,11	6,5
44	1 qomat o'lchov birligidagi portret tasvirlangan barelyef (memorial doska yoki pannoda)	dona	2,11	32,4
45	2 qomat o'lchov birligidagi portret tasvirlangan barelyef (memorial doska yoki pannoda)	dona	2,11	38,9
46	3 qomat o'lchov birligidagi portret tasvirlangan barelyef (memorial doska yoki	dona	2,11	61,5

	pannoda)**			
47	Bezakli yoki fazoviy bezakli kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllarining yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan eskizi	dona	14,05	22,7
48	Bezakli yoki fazoviy bezakli kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllarining yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan 1:5 masshtabdagi ishchi modeli	dona	8,8	22,7
49	Yumshoq xomashyodan qo'lda yasalgan bezakli (fazoviy bezakli) kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllari (balandligi va eni 2 metrgacha bo'lganda)****	dona	13,0	64,8
50	Installyatsiya*****	dona	9,7	64,8
51	Haykal aksessuarlari (mebel buyumlari, manzara elementlari, bayroq, ustun, qurol - aslaha, murakkab bosh kiyimlar va boshqalar)	dona	1,6	11,3
52	Rang tanlash hamda surish	m ²	1,6	4,9
53	Imitatsiya ishlari (tosh, marmar, temir, yog'och, soch, soqol, yung, naqsh, bezaklar va boshqalarning effektlarini o'xshatish)	m ²	0,5	1,6
54	Mahobatli haykal va modelni 3D-skaner yordamida ko'chirish, haykalni qayta ishlash	m ²	1,6	19,4

Izoh:

1.*O'lchami 4 qomat o'lchov birligidan baland bo'lgan byustlar uchun mualliflik haqini hisoblashda 4 qomat o'lchov birligidan baland bo'lgan har bir qomat o'lchov birligi uchun mazkur byustning birinchi qomat o'lchov birligiga hisoblanadigan miqdor qo'shib boriladi.

**O'lchami 3 qomat (tana) o'lchov birligidan baland bo'lgan inson yarimqomati (inson qomati, hayvon tasvirlangan haykal, portret) uchun mualliflik haqini hisoblashda 3 qomat (tana) o'lchov birligidan baland bo'lgan har bir qomat (tana) o'lchov birligi uchun mazkur inson yarimqomatining (inson qomati, hayvon tasvirlangan haykal, portret) birinchi qomat (tana) o'lchov birligiga hisoblanadigan miqdor qo'shib boriladi.

***O'lchami 3 m dan baland bo'lgan animalistik janrdagi haykal uchun mualliflik haqini hisoblashda 3 m dan baland bo'lgan har bir metr uchun mazkur animalistik janrdagi haykalning birinchi metri uchun hisoblanadigan miqdor qo'shib boriladi.

****Balandligi, qalinligi va (yoki) eni 2 m dan baland (qalin, keng) bo'lgan bezakli (fazoviy bezakli) kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllari uchun mualliflik haqini

hisoblashda 2 m dan baland (qalin, enli) bo'lgan har bir metr uchun mazkur bezakli (fazoviy bezakli) kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllarining birinchi metri uchun hisoblanadigan miqdor qo'shib boriladi.

Bunda balandlik, qalinlik va (yoki) en bir vaqtda 2 m dan oshgan hollarda faqat eng uzun yo'nalish (balandlik, qalinlik yoki en) hisobga olinadi.

*****Installyatsiyada qo'llaniladigan xomashyolar mualliflik haqi tarkibiga kirmaydi.

2. O'lchami 3 qomat (tana) o'lchov birligidan baland bo'lgan mahobatli haykaltaroshlik asarlari uchun mualliflik haqini hisoblashda 3 qomat (tana) o'lchov birligidan baland bo'lgan har bir qomat (tana) o'lchov birligi uchun 1.2 koeffitsiyent qo'llaniladi.

Balandligi, qalinligi va (yoki) eni 5 m dan baland (qalin, keng) bo'lgan bezakli (fazoviy bezakli) kompozitsiya haykali va inson qomati qism shakllari uchun mualliflik haqini hisoblashda 5 m dan baland (qalin, enli) bo'lgan har bir metr uchun 1.1 koeffitsiyent qo'llaniladi.

Bunda badiiy asarning balandligi, qalinligi va (yoki) eni bir vaqtda 5 m dan oshgan hollarda koeffitsiyent faqat eng uzun yo'nalish (balandlik, qalinlik yoki en) uchun hisobga olinadi.

3. Agar ko'p figurali barelyef asarida bir nechta shaxslarning portreti aniq ifodalangan bo'lsa, ularning har biri mazkur jadvalning 44-46-pozitsiyalari asosida alohida baholanadi.

6-bob. Yumshoq bo'lmagan xomashyodan yasalgan yoki qo'shimcha ishlar bajarilgan mahobatli haykaltaroshlik asarlari uchun qo'shimcha koeffitsiyentlar*

T/r	Nomi	MHTEKMga nisbatan eng kam miqdor (foizda)	MHTEKMga nisbatan eng ko'p miqdor (foizda)
1	Sinch va konstruksiya (karkas) ishlari**	1,0	10,0
2	Gips yoki gips xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	10,0	15,0
3	Beton yoki beton xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	20,0	30,0
4	Sopolimer (polyestr) yoki sopolimerga (polyestr) xususiyatiga o'xshash boshqa xomashyolardan haykaltaroshlik asarini tayyorlash	25,0	50,0
5	Muallif ijrosida quyma metallar uchun mumdan ishlangan modelda badiiy pardozlash ishlari (bronza va boshqa metallar)	5,0	10,0

6	Bronza, temir, zanglamaydigan po'lat hamda boshqa metallar, tosh, yog'och, shamot va boshqa qattiq xomashyolarga ko'chirish ishlari	50,0	80,0
7	Muallif ijrosida quyma metallarga badiiy ishlov berish va metalga ko'chirilgan haykaltaroshlik asarini pardoqlash ishlari (bronza va boshqa metallar)	10,0	30,0
8	Badiiy bo'yash va tus berish (tonirovka) ishlari	5,0	15,0
9	Dastgohli haykalning modeli yuzasiga rangli metallardan naqsh, tasvir tushirish, qoplama hosil qilish (chekanka)	40,0	70,0
10	Montaj va ijodiy ishni joyida o'rnatish****	1,0	10,0

Izoh:

*Mazkur qo'shimcha koeffitsiyentlar badiiy asarning turi, ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, mehnat sarfi va mualliflik ijodidan kelib chiqqan holda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga nisbatan foiz qiymatida belgilanadi hamda muallif haqini hisoblashda yumshoq xomashyodan yasalgan haykaltaroshlik asari narxiga qo'shiladi.

**Murakkab va og'ir konstruksiyali ishlar qo'llanilgan karkaslardagi ish jarayoni muallif tomonidan quyidagilarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi:

***Montaj va ijodiy ishlarni joyida o'rnatish jarayonida qo'llaniladigan transport vositalari, avtokran xizmatlari, loyihalash ishlari hamda og'ir konstruksiyali yordamchi qurilmalar uchun xarajatlar mualliflik haqi tarkibiga kirmaydi.

1) ushbu turdagi ishlar shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari hamda shaharsozlik normalari va qoidalari qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi;

2) mazkur turdagi ishlar shaharsozlik, arxitektura, loyihalashtirish va qurilish ishlaridan alohida hisoblanadi hamda loyiha hujjatlarida (ishchi loyiha, loyiha-smeta hujjatlari, ishchi hujjatlar) alohida ko'rsatiladi.

7-bob. Haykaltaroshlik asarlarini ta'mirlash ishlari uchun mualliflik haqi miqdorlari*

